

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA

MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

«IJTIMOIY IQTISODIY» fakulteti

«Milliy g‘oya, manaviyat asoslari va huquq talimi » kafedrası

4-bosqich 403-guruh talabasi

Husanboyev Arofatalining

Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalari fanidan tayyorlagan

Kurs ishi

NAMANGAN – 2015

MAVZU : O‘ZBEKISTONDA MILLIY TIKLANISHNING G‘OYAVIY- MAFKURAVIY ASOSLARI

REJA:

KIRISH.

I BOB. AJDODLARIMIZ ME‘ROSI VA MA‘NAVIYAT.

- 1.1- §. Sharqona tarbiya haqida mutafakkirlarning qarashlari.
- 1.2- §. Milliy madaniyat va qadriyatlar uyg‘unligi.

II BOB. O‘ZBEKISTONDA MILLIY TIKLANISH MASALASI.

- 2.1- §. Milliy tiklanishda oila va mahalla hamkorligi.
- 2.2- §. Fuqarolik jamiyatida g‘oyalar xilma-xilligi.

XULOSA.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

KIRISH.

Milliy-ma'naviy tiklanish yoshlar ongida milliy g'oya va mafkurani shakllantirish, millat, millatlararo munosabatlar mazmun-mohiyati, ularning jamiyat hayoti va taraqqiyoti jarayonida qanday o'rin tutayotganligi to'g'risida bilim va tasavvurlar hosil qilishdir.

Mazkur kurs ishida mamlakatimiz mustaqillikka erishilgandan so'ng xalqimizning uzoq vaqt unutilgan yoki ataylab odamlardan berkitilgan, o'zini boy tarixiga ega bo'lgan milliy ma'naviyatimizni tiklash, uni xalqimizning kelajagini o'ylab, yurtimizning ravnaqi yo'lida rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ulkan ishlar, shuningdek, bu borada oldimizda turgan vazifalar haqida fikr yuritiladi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi. Agar biz bu masalada xushyorlik va sezgirligimizni, qat'iyat va mas'uliyatimizni yo'qotsak, bu o'ta muhim ishni o'z holiga, o'zibo'larchilikka tashlab qo'yadigan bo'lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo'g'rilgan va ulardan oziqlangan ma'naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrilib, oxir-oqibatda o'zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo'lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin"¹.

Bu fikrlar yurtimizning har bir vatanparvar fuqarosini o'yga toldiradi va xushyorlikka chaqiradi. O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tish, huquqiy demokratik davlat qurish, yangicha fikrlaydigan, mehnatga yangicha munosabat bilan qaraydigan yoshlarni tarbiyalash, milliy-ma'naviy qadriyatlarimizni tiklash, xalqimiz uchun farovon turmush sharoiti yaratish yo'lidan bormoqda. Albatta bu ish nihoyatda murakkabligini, bir qator qiyinchiliklarni, ayniqsa xalqimiz ongida zamonga mos o'zgarish qilish lozimligini ko'pchilik yaxshi tushunadi. Bu o'zgarishlar, jamiyatni ma'naviy hayotini yuksaltirish va ma'naviy tarbiya bilan bog'liqdir.

¹ Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – B.28.

I BOB. AJDODLARIMIZ ME'ROSI VA MA'NAVIYAT.

1.1- §. Sharqona tarbiya haqida mutafakkirlarning qarashlari.

O'sib ulg'ayib kelayotgan yosh avlod tarbiyasiga juda qadimdan otabobolarimiz alohida e'tibor berishgan. Yosh bolani bir niholga — navdaga qiyos etishganki, uni qayoqqa bursang, shu tomonga o'sadi, deyishadi. Bugungi kunda fan-texnika jadal sur'atlar bilan o'sayotgan bir davrda yoshlar ta'lim-tarbiyasiga har qachongidan ham katta e'tibor talab qilinmoqda. Jamiyat qanchalik o'sib, rivojlanib, yuksalib borgani sari insonlar o'rtasidagi munosabatlar ham shunchalik murakkablashib boradi. Ana shundan kelib chiqib yoshlarga bo'lgan e'tiborni bir daqiqa ham susaytirmaslik davr talabi hisoblanadi.

Shaxsning rivojlanishi – jamiyat rivoji demakdir. Shunday ekan jamiyat oldida turgan eng asosiy vazifalardan biri har tomonlama yetuk, salohiyatli teran fikrlaydigan o'z ijodiy faoliyati bilan davlat va jamiyatga foyda keltiradigan barkamol va sog'lom avlodni voyaga yetkazishdir. Mustaqil fikrlaydigan, o'z faoliyatida biror yangilik yarata oladigan, bunyodkor yoshlarni tarbiyalash vazifasi hozirgi kunning dolzarb muammosidir. Bunday xususiyatga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash uchun biz bolalarni boshlang'ich sinfdanoq ijodkor, bunyodkor va yaratuvchanlik faoliyatiga xos qilib tarbiyalashimiz zarur. Boshlangich ta'lim – inson butun hayoti mobaynida olishi mumkin bo'lgan barcha ta'limlarning asosi, poydevori hisoblanadi. Boshlangich ta'lim deganda, uning rivojlanishi tugamasligi, tadrijiy bog'liq bo'lgan bir necha bosqichlarga bo'linishi, har bir bosqich yangi, ancha yuqori darajadagi bosqichga o'tish uchun imkon yaratishi tushuniladi.

Boshlangich ta'lim ta'lim-tarbiya tizimida barkamol shaxsni voyaga yetkazish, keng dunyoqarashli va ma'rifatli, aql-idroki mukammal, ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamol, ruhan tetik, o'z mamlakati va uning jahon hamjamiyatida tutgan o'rni va rolida o'zining fuqarolik mas'uliyatini to'g'ri va

to'la anglab etgan iymonli, barkamol inson shaxsini tarbiyalash maqsadlaridan kelib chiqadi.

Boshlangich ta'lim tizimida barkamol shaxsni tarbiyalashning markaziy masalasi yoshlarda yuksak axloq va fuqarolik sifatlarini shakllantirish, insonning or-nomusi, sha'ni va mas'uliyati kabi tuyg'ularni, vatanparvarlikni, ma'naviy-ruhiy fazilatlarni tarbiyalashdan iboratdir.

Barkamol shaxsni voyaga yetkazish ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni insonning ijtimoiy intizomi va uning mehnat faoliyatining ajralmas va tabiiy belgilariga, xususiyatlariga aylantirishdan iborat bo'lib, yosh avlodni ijodkorlik ruhida tarbiyalashga qaratiladi.

Xalqimiz qadimdan barkamol avlod tarbiyasiga jamiyat ravnaqining muxim omili sifatida aloxida e'tibor bilan qarab kelganliklarini ta'kidlash o'rinlidir. Vatanimiz dong'ini dunyoga taratgan qomusiy olimlarimiz o'z asarlarida shaxs aqliy, ma'naviy-axloqiy, jismoniy va estetik tarbiyasining ahamiyati va uni amalga oshirish yo'llari to'g'risidagi o'z tavsiyalarini bayon qilganlar.

Barkamol shaxs g'oyasi azal-azaldan xalqimizning ezgu orzusi, millat ma'naviyatining uzviy bir qismi bo'lib qolgan. Barkamol shaxs g'oyasi zardushtiylarning muqaddas kitobi "Avesto"da, Qur'oni Karim va hadislarda, tasavvuf falsafasida, Sharq mutafakkirlari asarlarida o'zining teran ifodasini topgan. Xalqimiz tarixida barkamollik timsollari ko'p: Alpomish xalqimizning orzusidagi qahramoni, u aql, fahm-farosat, jismoniy kamolot, mardlik va vatanparvarlikning badiiy timsoli bo'lsa, hazrat Navoiy uchun xalq orzusidagi qahramon Farhod obrazidir. Ularday axloqan va jismonan barkamollikka erishgan shaxslar Oybekning "Navoiy" romanida esa Navoiy obrazidir. Ayni paytda u real tarixiy shaxs, ijodkor komil insondir.

Uyg'onish davri Sharq mutafakkirlari o'zlarining ta'lim va tarbiya to'g'risidagi asarlarida barkamol shaxsni shakllantirish muammosini yer yuzida insonning baxtga erishuvi uchun shart-sharoitlar yaratish to'g'risidagi g'oyalar bilan bog'liqligiga qaratganlar. Pedagogika tarixida Al- Farobiyning fozil inson sifatleri, bilimlarni olish yo'llari va uslublari haqidagi konsepsiyasi; Al-Beruniyning kasbiy bilimlarni egallash uslublari haqidagi qarashlari; Ibn Sinoning

aqliy, ma'naviy hamda jismoniy komillikka erishish haqidagi ta'limoti; Al-Xorazmiyning ilmiy bilimlar, hayotiy muammolarni hal qilish yo'llari to'g'risidagi asarlari o'zining alohida o'rniga ega. O'z o'rnida shuni ham qayd etish kerakki, olimlarimiz shaxs sifatlarini shakllantirishda olingan bilim natijasida hosil bo'lgan ko'nikmalarga e'tiborni qaratadi. Ayni vaqtda shuni e'tirof etishimiz lozimki, ular bilim olish orqali bolalarda ijodkorlik, bunyodkorlik sifatlarining hosil bo'lishini nazarda tutmoqda.

Jumladan, Al-Xorazmiy shaxs sifatlarini shakllantirish va shaxslararo munosabatlarni rivojlantirishda fanning yuksak o'rnini qayd etadi. U shaxsni kuzatish, tajriba-sinovlar o'tkazish, ko'nikma va malakalarni tarkib toptirishda, aqliy sifatlarini rivojlantirishning boshqa vositalariga katta ahamiyat bergan. Bu to'g'ridagi fikrlarini u "Al jabr v-al muqobala" (Algebra), "Hisob al-hind" va boshqa asarlarida bayon qilgan.

Abu Nasr Al-Forobiyning ijodiy merosida uning tomonidan birinchi bo'lib yaratilgan fanlar tasnifi alohida o'ringa ega. Allomaning qayd etishicha, inson o'zida barkamollik sifatlarini tarkib toptirish uchun birinchi navbatda ilmiy bilimlarni egallamog'i lozim, shuningdek u shaxs aqliy rivojlanishining asosi sifatida idrok qilish va fikrlash qobiliyatlarining ahamiyatini alohida qayd etadi.

O'zining "Ixso al-ulum", "Fozil odamlar shahri", "Baxtga erishish haqida" kabi asarlarida Al-Farobiy barkamol ijodkor shaxsni tarbiyalash ishlari mazmuni, maqsadi, vazifalari, yo'llari hamda vositalari to'g'risida so'z yuritadi. Al-Farobiy "o'qitish" va "tarbiyalash" tushunchalariga birinchi bo'lib ta'rif bergan olim sanaladi.

Beruniyning qayd etishicha, insonning barkamolligi uning amaliy kuzatishlari asosida shakllangan aqliy faoliyati negizida yuzaga keladi. Demak, inson shu asosda tashqi olamni, borliqni o'rganadi, bilimlarni egallaydi, haqiqatga yaqinlashadi, haqiqat esa borliq to'grisidagi tasavvurlarning haqqoniyligini talab qiladi. Shu taxlitda inson shaxsi rivojlanib boradi. Inson shaxsi rivojlanar ekan unda ijodkorlik, yangilikka intilish kabi sifatlar, ko'nikmalar hosil bo'la boradi.

Alisher Navoiy esa, shaxs kishilar bilan munosabatda, ayniqsa, kishilarning bir-birlariga bo'lgan ruhiy, ma'naviy ta'sirlari natijasida tarkib topadi deb

hisoblaydi. Shunday qilib, allomalarimiz o'zlarining pedagogik qarashlarida insonning aqliy, axloqiy, estetik hamda jismoniy rivojlanishi majmuasini barkamollik mezoni sifatida unga erishish yo'llari hamda vositalarini ko'rsatib berganlar. Demak, ta'kidlash mumkinki allomalarimizning pedagogik qarashlari ular ijtimoiy-falsafiy qarashlarining tarkibiy qismi bo'lib qolmasdan, balki maxsus pedagogik asarlar orqali chuqur va mukammal yoritilgan g'oyalar majmuasidan ham iboratdir.

Abu Ali Ibn Sino ham aqliy tarbiyaga fanlar asoslarini egallash orqali erishilishini ta'kidlaydi. U bilim olish uslublarini egallashda mantiqiy fikrlashga, shaxsiy kuzatish natijalari va tajribaga asoslanish lozimligi to'grisidagi fikrlarni ilgari suradi. Uning maktabda bolalarga ta'lim-tarbiya berish borasidagi g'oyalari bugungi kunda o'zining yuksak ahamiyatini yo'qotmagan.

Yurtimiz allomalarining ma'naviy-axloqiy boradagi qarashlari ham alohida e'tiborga molik. Hozirgi davrga qadar Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sinolarning pedagogik qarashlari ular yaratgan ijtimoiy-falsafiy ta'limotning tarkibiy qismi sifatida qarab kelinadi. Biroq ular ilmiy merosning tahlili qomusiy allomalarimizning pedagogika tarixida alohida o'ringa ega ekanligini ko'rsatmoqda.

Avloniyning fikricha sog'lom fikr, yaxshi axloq, ilm-ma'rifatga ega bo'lish uchun dastlab tanani tarbiyalash zarur. Badanning sog'lom va quvvatli bo'lishi insonga eng kerakli narsadir. Chunki o'qimoq, o'qitmoq va o'rgatmoq uchun insonga kuchli, kasalsiz vujud lozimdir. «Aql,-deydi u,-piri komili, murshidi yagonasidur. Ruh ishlovchi, aql boshlovchidir. Inson aql va idroki sohasida o'ziga keladurg'on zarar va zulmlardan saqlanur, yer yuzidagi hayvonlarni asir qilib, bo'ynidan bog'lab iplarining uchini qo'llariga bergan inson aqlidur».

Abu Nasr Forobiy yozadiki: «Aqlli deb shunday kishini aytamizki, unda o'tkir zehn, idrok bo'lishi bilan birga u fazilatli ham bo'lsin. Bunday kishi o'zining butun qobiliyati va idrokini yaxshi ishlarni amalga oshirishga, yomon ishlardan o'zini saqlashga va tortishga qaratgan bo'lmog'i lozim. Shunday odamgina aqlli va butun fikr yurituvchi deb atash mumkin».

Mehnat tarbiyasi masalalari ham O'rta Osiyolik mutafakkir olimlar va shoirlarning bizga meros bo'lib qolgan ma'rifiy asarlarida katta o'rin olgan. Masalan, o'zbek shoiri Alisher Navoiy mehnatsevarlikni chinakam insonning eng asosiy xususiyati deb bilgan. Mehnat kishini bezashini, uni har tomonlama kamol toptirishini yuksak ko'tarinki ruh bilan madh etgan. Yoshlarni sidqidildan mehnat qilishga, mehnatni qadrlashga chaqirgan. Sharq madaniyatining buyuk namoyandasi Mirzo Ulug'bek ham yosh avlodga tabiat va uni muhofaza qilish, tabiat yaratgan ne'matlarni tejab-tergab tasarruf qilish to'g'risidagi bilimlar berish kerakligini ta'kidlagan. Yoshlar bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirishlari, o'z fikr-mulohazalarining to'g'riligiga bevosita kuzatish orqali ishonch hosil qilishlari muhim ahamiyatga ega ekanliklarini ko'rsatib o'tgan.

1.2- §. Milliy madaniyat va qadriyatlar uyg'unligi.

Qadriyat tushunchasi - juda keng tushuncha. Uning bir qismi - ma'naviy qadriyatlardir. Milliy ma'naviy qadriyatlar - «milliylik», «ma'naviyat» va «qadriyat» tushunchalari kesishgan nuqtada jamlangan ijtimoiy hodisalarni o'z ichiga oladi.

«Milliy ma'naviy qadriyatlar» tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin:

Muayyan millat, shu millat vakillari uchun zarur va ahamiyatli, aziz va ardoqli bo'lgan manfaati va maqsadlariga xizmat qiladigan ma'naviy boyliklar, amallar va tamoyillar, g'oyalar va me'yorlar milliy ma'naviy qadriyatlardir.

Har bir xalqning o'zi uchun e'zozli, qimmatli bo'lgan ma'naviy boyliklari bo'ladi. Bular asrlar davomida avloddan-avlodga o'tib kelgan, hozirgi kunda ham o'zining ahamiyati va qadrini yo'qotmagan, shu xalqning iftixor manbaiga aylangan durdonalardir. Masalan, qirg'iz xalqi «Manas» dostoni bilan, misrliklar qadimiy piramidalar, frantsuzlar Parijdagi Luvr saroyi, o'zbeklar Samarqand-Buxoro va Xiva bilan haqli ravishda faxrlanadilar.

Millat va elatlarning o'ziga xos tarixiy merosi, san'ati va adabiyoti bilan bir qatorda ularning urf-odat va marosimlari, madaniy munosabat va axloqiy fazilatlari ham ma'naviy qadriyatlar tizimiga kiradi. Bular xalqning o'ziga xosligini saqlab qolishda, yosh avlodni tarbiyalashda, shaxsning ijtimoiylashuvida muhim rol o'ynaydi.

Milliy ma'naviy qadriyatlarda xalqning dunyoqarashi va hayotga munosabati, ichki tabiati va turmush tarzi o'z ifodasini topadi. Bularda millatning ruhiy olami va tafakkur tarzi, orzu-umidlari va ideallari, vijdoni va or-nomusi aks etadi.

Milliy qadriyatlar xalqning kundalik hayoti va turmush tarzida o'ziga xos mezon vazifasini o'taydi. Ushbu qadriyatlar vositasida turli hodisa va holatlarga, yangi paydo bo'layotgan faoliyat turlari va rasm-rusumlarga baho beriladi. Yosh

avlodning hayotiy mo'ljallari, «zamona qahramoni» haqidagi tasavvurlari ham ma'naviy qadriyatlardan kelib chiqib shakllanadi.

Milliy g'oya va ma'naviy qadriyatlarning uzviy bog'liqligi. Milliy ma'naviy qadriyatlar - ijobiy axloqiy sifatlarni takomillashtirish, davlat va millat rivojiga to'g'anoq bo'ladigan salbiy illatlarni bartaraf etish omilidir.

Milliy g'oya va ma'naviy qadriyatlar orasida uzviy aloqadorlik, o'zaro ta'sir mavjud bo'lib, bu quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

birinchidan, milliy qadriyatlar milliy g'oya uchun ma'naviy negiz, manba bo'lib xizmat qiladi;

ikkinchidan, milliy g'oya qadriyatlarni boyitish, yanada yuksak bosqichga ko'tarish, odamlar ongi va qalbiga milliy qadriyatlarni singdirish omili bo'lib hisoblanadi;

uchinchidan, milliy g'oya xalqning tub manfaatlarini nuqtai nazaridan mavjud ma'naviy qadriyatlarga baho beradi, ijobiy jihatlarni rivojlantirish, salbiy holatlarni inkor etishning ma'naviy mezonini bo'lib maydonga chiqadi.

Ma'naviyat, qadriyatlar va milliy g'oya - jamiyat hayotining juda murakkab va serqirra, o'zaro uzviy aloqadorlikda bo'lgan sohalaridir.

Ma'naviyat, milliy qadriyatlar va istiqlol g'oyalari alohida olingan har bir shaxs hayotida ham, jamiyatdagi turli guruh va qatlamlar faoliyatida ham, umuman insoniyat taraqqiyotida ham katta ahamiyatga ega. Millat va davlat taraqqiyotining ma'lum davrlarida ma'naviyat va milliy g'oya eng dolzarb, hal qiluvchi omil bo'lib maydonga chiqadi.

O'zbekiston Istiqlolining asoschisi Islom Karimov tomonidan mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab ma'naviyat masalasiga, taraqqiyotning o'ziga xos va o'ziga mos yo'lini belgilovchi milliy ma'naviy qadriyatlar masalasiga juda katta e'tibor qaratildi. Xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishning ilmiy-nazariy, fundamental kontseptsiyasi ishlab chiqildi.

Ayni paytda, buyuk kelajakni yaratish yo'lida xalqni birlashtirib, yakdil qila oladigan, bunyodkorlik ishlariga safarbar etib, ruhiy tayanch bo'la oladigan milliy g'oyani shakllantirish muammosi Yurtboshimiz Islom Karimovning diqqat nazaridan bir daqiqa ham chetda qolmadi.

«O`zining hayotini, oldiga qo`ygan maqsadlarini aniq tasavvur qiladigan, o`z kelajagi haqida qayg`uradigan millat hech bir davrda milliy g`oya va milliy mafkurasiz yashamagan va yashay olmaydi»².

Binobarin, ma'naviyat, qadriyat va milliy g`oya - xalqning bugungi hayoti uchun ham, ertangi istiqboli uchun beqiyos ahamiyatga ega bo`lgan ma'naviy-ijtimoiy sohalaridir. Milliy o`zlikni anglash aynan ma'naviy qadriyatlarni o`zlashtirish, o`z xalqining tarixi, madaniy merosini o`rganish, bugungi holati va ertangi istiqbolini aniq tasavvur etishdan boshlanadi. Har bir insonning mehnati, faoliyati, hayotiy maqsadlari ma'lum bir qadriyatlarga erishish, moddiy va ma'naviy boyliklarga ega bo`lishga yo`naltirilgan bo`ladi.

Milliy ma'naviy qadriyatlar ko`p asrlik tarixga ega.

O`zbekistondagi tarixiy obidalar, madaniy yodgorliklar, urf-odat va marosimlarni tahlil qilish, bularning paydo bo`lishi juda qadim zamonlarga borib taqalishini ko`rsatadi.

Misol uchun, «Avesto»ni olaylik. Bu buyuk asar bundan 2700 yil muqaddam yaratilgan. O`n ikki ming mol terisiga oltin harflar bilan bitilgan bu asar paydo bo`lishi uchun undan avval ham kamida necha ming yillik davr o`tganligi, teran hayotiy tajriba va hikmatlar to`planganligi shubhasiz. Bu asar yuksak madaniy hayot, falsafa va fan, xattotlik va mushtariylik rivojlanishi natijasida yaratilganligi uchun ham, shu paytgacha o`z qimmatini yo`qotmadi.

Davrlar o`tishi bilan milliy ma'naviy qadriyatlar ham o`zgarib, rivojlanib, yangilanib, boyib boradi. Zamon ruhiga va taraqqiyot talablariga mos kelmay qolgan me'yor va talablar inkor etiladi. Yangicha tasavvur va yondoshuvlar, fazilat va odatlar hayotga kirib keladi. Bunga kundalik hayotimizdan, turmush tarzi - kiyinish, ovqatlanish, to`y-xashamlarni o`tkazish va boshqalardan ko`plab misollar keltirish mumkin.

Insoniyatning oxirgi yarim ming yillik umri davomida jahon bozori paydo bo`ldi, iqtisodiyot va madaniyatlarning o`zaro ta'siri kuchaydi. XXI asr boshiga kelib axborot texnologiyalari tufayli globallashuv jarayoni yangi bosqichga ko`tarildi. Bu sharoitda milliy qadriyatlarga chetdan bo`ladigan ta'sir beqiyos

² Миллий истиқлол ғояси:асосий тушунча ва тамойиллар. -Т.: «Ўзбекистон», 2001.- Б.5-6.

darajada zo'raydi. Bu ta'sir, bir tomondan, milliy madaniyatlarning boyishi, qadriyatlarning qayta baholanishi va yuksalishiga, ikkinchi tomondan esa, millatning ruhiyati va qadriyatiga yot bo'lgan odat va harakatlarning kirib kelishiga sabab bo'ldi.

I.Karimov mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab milliy ma'naviy qadriyatlarni yuksaltirishga alohida e'tibor berib kelmoqda. Bir tuzumdan boshqasiga o'tish davrida aholining ruhiyati va qadriyatlarida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ladi. O'z umrini yashab bo'lgan g'oyalar va mafkuraviy aqidalar, zamonga mos kelmaydigan munosabat va fazilatlar o'rnini yangilari bilan to'ldirish osonlikcha kechmaydi. Shularni hisobga olib, aytish mumkinki milliy o'zlikni saqlash, tarixiy xotirani tiklash, kelajakka komil ishonch hissini yaratish uchun ma'naviyat, milliy ma'naviy qadriyatlar beqiyos ahamiyatga ega.

Milliy ma'naviy meros, qadriyatlarning tarkibi, ko'rinishlari. Milliy ma'naviy meros, qadriyatlar tushunchasi keng qamrovli tushuncha bo'lib, uning tarkibi quyidagilardan iborat:

- tarixiy meros va tarixiy xotira;
- madaniy yodgorliklar, osori-atiqalar, qadimiy qo'lyozmalar;
- ilmu-fan yutuqlari va falsafiy tafakkur durdonalari;
- san'at va milliy adabiyot asarlari;
- axloqiy fazilatlar;
- diniy qadriyatlar;
- urf-odat, an'ana va marosimlar;
- ma'rifat, ta'lim-tarbiya va hokazolar.

Milliy ma'naviy qadriyatlar tizimida tarixiy meros va tarixiy xotira muhim o'rin tutadi. Ma'naviyatni yuksaltirish va xalqning ruhini ko'tarishda tarixiy meros hamda tarixiy xotiraning juda katta ahamiyati bor. Tarixni haqqoniy o'rganish, undan saboqlar chiqarish lozim.

Milliy ma'naviy qadriyatlar tizimida axloqiy sifatlar, diniy qadriyatlar munosib o'rin egallaydi va milliy o'zlikni anglashning muhim sharti, omili sifatida namoyon bo'ladi. Axloqiy va diniy qadriyatlar aksari hollarda o'zaro bog'liq

bo'lib, jamiyatning ma'naviy yuksalishida, yosh avlod tarbiyasida birdek muhim ahamiyatga ega.

Shularni hisobga olib, Prezident Islom Karimov «Turkiston-Press» agentligi muxbirining savollariga javob berib, madaniy, ma'naviy, axloqiy qadriyatlarni saqlab qolish va avloddan-avlodga etkazishda dinning beqiyos xizmati borligini uqtirib, «Diniy qadriyatlar, islomiy tushunchalar hayotimizga shu qadar singib ketganki, ularsiz biz o'zligimizni yo'qotamiz»³, deb ta'kidlaydi.

Har bir xalq, millat yaratgan ma'naviy qadriyatlar, uning dunyoga qarashi va hayotga munosabati, o'ziga xos betakror xususiyatlari, ayniqsa, urf-odat va marosimlarda to'laqonli namoyon bo'ladi. Marosimchilik bir qator ijtimoiy funktsiyalarni bajaradi, milliy o'zlikni saqlashda, yoshlarni tarbiyalashda, muayyan g'oyalarni ruhiyatga singdirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Tarbiya va ta'limning milliy xususiyatlari ham ma'naviy qadriyatlar tizimida o'z o'rniga ega. Xalqning kelajagi yoshlarga bog'liq ekanligi qanchalik haqiqat bo'lsa, ularni milliy ruhni tarbiyalash zarurati ham umume'tirof etilgandir. Milliy tarbiya xalqning o'z-o'zini saqlash va istiqbolini ta'minlash omilidir.

Xulosa qilib aytganda, milliy ma'naviy qadriyatlarning har bir tarkibiy qismi xalqning mustaqilligini mustahkamlash va kelajagini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Milliy qadriyatlar - milliy g'oyaning ma'naviy negizi. Milliy g'oya - millat tafakkurining mahsuli, ijtimoiy ongning yuqori darajadagi shakli, xalq falsafasining o'zagidir. Turli xalqlarning milliy g'oyasi ularning maqsad-muddaolarini, orzu-umidi va ishonch-e'tiqodini ifodalaydi, ayni paytda muayyan tamoyil va negizlarga asoslanib rivojlanadi. Tarix saboqlari guvohlik berishicha, o'tkinchi manfaat va g'aliz niyatlarga tayangan, o'zga xalqlar va yurtlarga tajovuz qilishni, bosqinchilikni ko'zlagan yovuz g'oya va mafkuralar millat va davlatlarni tanazzulga duchor etgan. Faqat ezgu g'oyalar va yuksak qadriyatlar negizida shakllangan milliy g'oyalar xalqlarni taraqqiyotga eltgan.

O'zbekiston xalqining milliy istiqlool g'oyasi umuminsoniy va milliy qadriyatlarga tayanadi. Bularning biri ikkinchisini inkor etmaydi.

³ Каримов И.А. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қурамыз. Т.7. –Т.: «Ўзбекистон», 1999. – Б.349-355.

«Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasida quyidagi milliy xususiyatlar qayd etilgan:

- xalqimiz hayotida qadim-qadimdan jamoa bo'lib yashash ruhining ustunligi;
- jamoa timsoli bo'lgan oila, mahalla, el-yurt tushunchalarining muqaddasligi;
- ota-ona, mahalla-kuy, umuman jamoatga yuksak hurmat-e'tibor;
- millatning o'lmas ruhi bo'lgan ona tiliga muhabbat;
- kattaga - hurmat, kichikka - izzat;
- mehr-muhabbat, go'zallik va nafosat, hayot abadiyligining ramzi - ayol zotiga ehtirom;
- sabr-bardosh va mehnatsevarlik;
- halollik, mehr-oqibat va hokazo»⁴.

O'zbek milliy qadriyatlari inson va millat hayotining barcha jabhalarida namoyon bo'ladi. Milliy tabiatimizga xos bo'lgan mehr-oqibat, muruvvat, andisha, or-nomus, sharmu-hayo, ibo-iffat kabi betakror fazilatlar, xalqimizni ko'p jihatdan ajratib turadigan bag'rikenglik, mehmondo'stlik, oqko'ngillilik xususiyatlarini tavsiflash orqali ularni butun qadriyat darajasida o'ringa ega ekanligini ta'kidlash lozim.

Insoniyatning ko'p ming yillik tarixi mobaynida oila, oilaviy munosabatlar juda katta taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Turli davrlar bularga o'z ta'sirini o'tkazdi. Mohiyati bir bo'lsa-da, turli xalqlarda oilaviy munosabatlar turli xil shakllarda namoyon bo'ldi.

Oila - muqaddas. Oila qurish - o'ta mas'uliyatli ishdir. «Oila - eskilik unsuri emas». U muqaddas oilada milliy kelajagi mujassam. Yoshlarni tarbiyalash, kamolotga etkazish, ilm-hunar berish, uyli-joyli qilish - aksariyat oilalarning eng oliy maqsadidir.

O'zbekning hayotdan ko'zlagan asl muddaosi - bola-chaqali bo'lish, bularning to'yini, orzu-havasini ko'rish. Yosh avlodni hayotga yo'llantirish, bular uchun muayyan boshlang'ich nuqta - start pozitsiyasi yaratib berish turli

⁴ Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar, 49-bet.

millatlarda turlichadir. Ayrim xalqlar mentalitetida farzandlar voyaga etgach, oilasi, ota-onasini tashlab, faqat o'z kuchi bilan mustaqil oyoqqa turish uchun uyini tark etadi. O'zi ham oila qurib, farzand ko'rib, uni katta qilganda - u ham avlodlar vorisligiga chek quyib, oilasini tark etadi.

O'zbeklarda yoshlar uchun juda yuqori start pozitsiyasi yaratib, hayotga yo'llanadi. Uylanayotgan yigitga kamida 1-2 xonali uy, turmushga chiqayotgan qizga mebel jihozlari va uy anjomlari taqdim etiladi. Ikki yosh farzandli bo'lgach, o'z navbatida, estafetani qabul qilib, keyingi avlodni hayotga tayyorlay boshlaydi. Ushbu milliy qadriyat oilaviy munosabatlarda ham vujudga kelishi mumkin bo'lgan begonalashuv jarayonini bartaraf etadi, avlodlar vorisligi uchun zamin yaratadi. Ayni paytda bu qadriyat, yoshlardagi boqimandalik, beg'amlik, o'z hayoti uchun mas'uliyatni faqat kattalarga topshirib qo'yish kabi illatlarni inkor etadi, o'z kelajagini o'z qo'li bilan yaratishga ishtiyoqni rag'batlantiradi. Ahil oilalarda aksariyat masalalar o'zaro fikr almashuv, maslahat va kengash orqali hal etiladi. Er-xotin, qaynona-kelin, aka-ukalar orasida sodir bo'ladigan ba'zi ixtiloflar mahalla va qarindosh-urug'lar vositachiligida bartaraf etiladi.

Mahalla - o'z-o'zini boshqarishning o'zbek xalqi yaratgan eng katta yutug'i, oqilona shaklidir. Mahalla - tarbiya maskani, har bir oilaga tayanch va suyanch ekanligi ko'pchilikka ayon. O'zbek xalqining hayoti, kundalik turmushi, qadriyatlari bilan tanishgan xolis fikrli xorijliklar mahallani noyob qadriyat, buyuk kashfiyot sifatida e'tirof etmoqdalar.

Qo'ni-qo'shnichilik munosabatlari uzoq tarixga ega bo'lib, asrlar davomida bu borada muayyan qadriyatlar shakllangan. Jahon tarixining oxirgi bir necha asrida hukmron bo'lgan begonalashuv jarayoni bu sohaga ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Ayrim erlarda qo'shnilarga mutlaqo befarqlik yuzaga kelgan. Bunday holatni oldini olish muhim.

O'zbek xalqining qadriyatlari tizimida qo'shnilarga munosabat katta o'rin egallaydi. Xalq yaratgan maqol va matallar (mas., «yon qo'shnim - jon qo'shnim», «uzoqdagi qarindoshdan yaqindagi qo'shni afzal», «hovli olma - qo'shni ol» va h.q) uning bu masalada o'ziga xos falsafasi borligidan dalolat beradi.

Yaxshi qo`shnichilik munosabatlari buzilgan, arzimasi bilan qo`shnilar yuz ko`rmas bo`lgan hollarda qanchalar teran milliy qadriyat oyoq osti bo`lganligi, bag`rkenglik va murosa tamoyili lat eganligi ayon bo`ladi.

Keksalarga hurmat - inson yaratgan uning ma'naviy mavjudligini ifoda etuvchi qadriyat. Tirik tabiatning «yashab qolish uchun kurash», «faqat kuchlilar engadi» qabilidagi qonunlari mavjud. Nasl qoldirish, yangi avlodga mehr qo'yish, uni oyoqqa turg`azguncha jon fido qilish hayvonlarda ham bor. Ammo, qariyalarni e'zozlash, keksalarga ehtirom, mehr-muruvvat ko`rsatish - insoniy fazilatdir.

Kattalarni hurmat qilishdek milliy qadriyat, ba'zan yoshi va ilmi ulug`lar qolib, mansab va lavozimi yuqorilarga qulliq qilish kabi holatlarni e'tirof etmaydi. Ayni paytda, xalq tomonidan ko`rsatiladigan yuksak ehtirom keksalarga ham katta mas'uliyat yuklaydi.

Ayol zotiga ehtirom - insoniyatning yarmini tashkil etadigan xotin-qizlarga bo`lgan munosabatning eng yuqori cho`qqisidir. Tarixda ayollar iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan hukmron bo`lgan davr matriarxat deb atalgan. Hukmronlik erkaklarga o`tgan davrlarda ayolning haq-huquqlari va erkinliklarini kamsitadigan munosabatlar joriy etilgan. Demokratiyaning eng muhim yutug`i - har ikki jinsning teng huquqli va erkin bo`lishini ta'minlashdir.

O`zbekistonda istiqomat qiladigan barcha millat va elatlar xotin-qizlarga munosabatda Asosiy Qonunning xalqaro huquqqa mos qoidalariga amal qiladilar. O`zbeklar ayolga, avvalo, Ona, mehribon opa-singil, ardoqli qiz deb qaraydilar. Oilada ayolning o`ziga xos mavqei va o`rni bor. Xalqning boy madaniy merosi, adabiyoti, san'ati va falsafasi milliy g`oyasida aks etadi. Shuningdek ayollarining go`zallik va nafosati, ularning vafo va sadoqati timsoli sifatida gavdalanadi.

**Onaga bo`lgan hurmat va sadoqat** - eng oliy qadriyatdir. Shuning uchun Vatanga, milliy tilga nisbat berilganda Ona nomi qo`shiladi. Milliy istiqlol g`oyasi Onalar uchun, jamiyatdagi barcha ayollar uchun farovon hayot, go`zal turmush yaratishni maqsad qilib, xotin-qizlarning erkinligi va o`z qadr-qimmatini anglab etishiga, o`z salohiyat va imkoniyatlarini yuzaga chiqarishiga sharoit yaratishni bosh g`oyasi orqali mujassamlashtirgan.

Milliy g'oyaga ma'naviy poydevor bo'ladigan milliy qadriyatlar doirasiga urf-odat va marosimlar, bularga asos bo'lgan insoniylik va jamoachilik tamoyillari, axloqiy fazilatlar kiradi. Uning tayanchi, negizi bo'lib ham xizmat qiladi. Chunki, bu qadriyatlarda millatni, xalqni ruhi mujassam.

Milliy ma'naviy qadriyatlar va milliy istiqlol g'oyasining uzviy aloqadorligi ularning faol o'zaro ta'sirida namoyon bo'ladi. Milliy g'oya ma'naviyatga tayanishi, undan hayot va ozuqa olishi bilan birga, ma'naviy-ruhiy hayotga ham ijobiy ta'sir o'tkazadi. Milliy g'oya qadriyatlarni yanada yuksaltirish, ularni odamlarning ongi va qalbiga singdirish, istiqlol va istiqbolga xizmat qilmaydigan jihatlarini bartaraf etish vazifalarini ham amalga oshiradi. Ma'naviy hayotdagi behisob hodisalarni, qadriyat va ne'matlarni xalq manfaatlari va e'tiqodi nuqtai nazaridan baholash - milliy g'oya mezonlari bilan o'lchanadi.

Milliy g'oya dastavval har bir inson uchun eng yaqin bo'lgan oilaviy munosabatlar - ota-ona va farzandlar, aka-uka va opa-singillar, qarindosh-urug'lar orasidagi aloqalarni yuksak ma'naviy qadriyatlar asosiga qurishni taqazo etadi. O'zbek xalqi yaratgan, jahon ahli e'tirof etgan betakror va buyuk qadriyat - Mahallaning hurmati va e'tiborini, uning o'z-o'zini boshqarishdagi rolini oshirish ham milliy g'oyaning muhim vazifasidir. Olamda o'zi tug'ilgan, voyaga etgan yurti Vatan deb bilmaydigan, qaerda qorin to'yib, tirikchilik o'tsa - shu yurtda qoladigan odamlar ham bor. Lekin, Vatan tuyg'usi, vatanparvarlik hissi - faqat etuk va fidoyi, haqiqiy vatanparvar insonlarga xos bo'lgan ulkan qadriyatdir. Milliy g'oyaga sadoqat - yuksak vatanparvarlikda, mustaqillikni mustahkamlash va Vatan ravnaqini ta'minlashga shaxsiy hissa qo'shish istagida namoyon bo'ladi.

O'z millatining tili va madaniyatidan, shu millatga mansubligidan or qiladigan, uning madaniyati va merosidan o'zini chetga oladigan ayrim kimsalar ham ba'zan topiladi. Ammo, haqiqiy millatparvar inson o'z xalqi boshiga kulfat kelganda ham uni tashlab ketmaydi, milliy g'urur va milliy or-nomusni himoya qilishni, qadrlashni eng ulug' qadriyat deb biladi. Milliy g'oya bu qadriyatni har bir yurtdoshimizning ongi va qalbiga singdirishga xizmat qiladi.

Dunyodagi hamma xalqlarda ham buni anglash va qadrlash tuyg`usi mavjud, uning turli ko`rinishlari bor. Masalan, mehmonnavozlik miqyosi va me'yori hammada har xil. Bu borada ham xalqimiz o`ziga xos madaniyat va qadriyatlar tizimini yaratgan. Oshna-og`aynigarchilik, do`st-dugona tutinish ham insonning ruhiy ehtiyojlaridan kelib chiqadi, uning ma'naviy dunyosini boyitadi. Ushbu qadriyat ham turli xalqlarda o`ziga xos tarzda namoyon bo`ladi. Bizning elda shoir Rudakiyning:

«Jahon shodliklari yig`ilsa butun -

Do`stlar diydoridan bo`lolmas ustun», degan bayti ham,

Erkin Vohidovning: «Do`st bilan obod uying, gar bo`lsa u vayrona ham», degan satrlari ham birdek takrorlanadi. Ba'zan «do`sting uchun zahar yut» degan naql noto`g`ri talqin qilingan hollar ham uchraydi.

Milliy ma'naviy qadriyatlar ming yillar davomida shakllangan, tarix sinovlariga dosh berib, necha-necha avlodlardan o`tib kelayotgan ma'naviy boylik ekanligi shubhasiz. Lekin bu boyliklar o`z-o`zidan va osonlikcha qadriyatga aylanmaydi. Ular jamiyat a'zolari, turli guruh va jamoalar tomonidan o`zlashtirilganda, hayotiy qo`llanma sifatida qabul qilingandagina qadriyatga aylanadi. Tom ma'nodagi qadriyat maqomini olish uchun bular shaxs va ijtimoiy guruhlarining ichki dunyosi va turmush tarziga singishi, faoliyatini yo`lga solish va baholash mezoniga aylanishi kerak.

Ma'naviy qadriyatlarning aholi keng qatlamlari, ayniqsa yosh avlodning «mulki»ga aylanishi o`z-o`zidan sodir bo`lmaydi. Buning uchun shu millat taqdiri va istiqboliga befarq qaramaydigan ilg`or vakillarning sa'y-harakati talab etiladi. Moddiy va ma'naviy boyliklar, agar milliy tarbiya to`g`ri yo`lga qo`yilmas ekan, chang bosgan kitoblar, nurayotgan osori-atiqalar, mazax qilinadigan udumlar darajasiga tushib qoladi.

Jamiyatdagi turli kishilarning, har xil guruh va tabaqalarning ma'naviy boyliklar va mezonlarga munosabati turlicha bo`ladi. Har bir shaxs va guruh o`z manfaatlaridan kelib chiqib, qadriyatlarni idrok etadi, o`z tarbiyasi va saviyasidan kelib chiqib, ma'naviyatni o`zlashtiradi. Xulosa qilib aytganda, milliy ma'naviy qadriyatlar ijtimoiy hayotning va ma'naviy borlig`imizning muhim va serqirra

sohasi bo'lib, inson va jamiyat kamolotida muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy qadriyatlar muttasil rivojlanib, takomillashib boradi. Bularning ijtimoiy guruhlar va alohida shaxslar tomonidan o'zlashtirilishi ta'lim va tarbiyani talab qiladi.

Milliy qadriyatlar o'tmish mustabid tuzum sharoitida tazyiq va tahqirga uchragan, ularga «eskilik sarqiti», «o'tmishning qoldig'i» degan tamg'alar bosilgan edi. hatto, bolani beshikkabelash, isiriq tutatish, maxsi-kavush kiyish, oyoqni sandalda issiq tutish kabi beg'ubor odatlar ham shu tahqirdan chetda qolmagan.

Mustamlakachilik siyosati soxta qadriyatlar, begona taomillarni zo'rlab kiritishga urindi. Xalqimizning ruhi va tabiatiga zid bo'lgan - ichkilikbozlik va giyohvandlik, behayolik va andishasizlik illatlari ildiz ota boshladi. Milliy ma'naviy qadriyatlarni himoya qilish millatchilik deb baholandi.

O'zbekistonning mustaqilligi ma'naviy qadriyatlarni yuksaltirish uchun mustahkam poydevor yaratdi. Milliy istiqlol g'oyasi bu qadriyatlarni tiklashni yanada yuqori bosqichga ko'tarishga xizmat qiladi.

I.Karimov: «Ota-bobolarimizdan qolgan ezgu udumga muvofiq, keksalarga hurmat, kichiklarga izzat ko'rsatishdek noyob insoniy qadriyatni yangi mazmun va amaliy ishlar bilan boyitish va mustahkamlash zarur», deb ta'kidlaydi. «Nuroniylarimiz, munis onaxonlarimizga hamisha hurmat-ehtirom bilan munosabatda bo'lish, ularning xizmatini qilib, duosini olish, jajji go'daklarga, aziz farzandlarimizga gamxo'rlik qilish, ularni ardoqlashdek xalqimizga xos bo'lgan, asrlar davomida saqlanib kelayotgan olijanob odatga har birimiz sodiq bo'lishimiz, uni asrab-avaylashimiz, rivojlantirishimiz ham farz, ham qarzdir». Lekin bu hammaga ham bir xilda xush kelmayotir. Bizni o'zimizga xos qadriyatlardan mahrum etishga urinishlar hozir ham davom etmoqda. «An'anaviy qadriyatlar»ni yo'q qilib taraqqiyotga erishish mumkin degan g'oya xavflidir.

Milliy qadriyatlarimiz orasida boriga shukur qilish, yo'g'iga sabr qilish, yorug' kunlarni orzu qilib, armonlar ushalishiga niyat qilish ustuvor bo'lib kelgan. Qiyinchiliklar oldida chekinish, g'ayrat qilish o'rniga xasrat bilan kun o'tkazish, pana-panada ig'vo-bo'xton tarqatish milliy g'oya ruhiga yot, qadriyatlarimizga zid illatlardir.

Xalqimizga xos milliy xususiyatlar, ayniqsa, to`y-tantanalar va marxumni xotirlash marosimlarining tashkil etilishida yorqin namoyon bo`ladi. Bunday marosimlar qarindosh-urug`chilik, qo`ni-qo`shnichilik va yor-do`stlik munosabatlarini yanada mustahkamlaydi, kishi uchun eng dahshatli bo`lgan yolg`izlikni bartaraf etadi. Sobiq mustabid tuzum chog`ida tazyiq va tahqirga uchragan milliy urf-odat va rasm-rusumlar mustaqillik tufayli qayta tiklandi. Ruhiy tayanch va madad beradigan bunday marosimlarni ochiq-oydin, emin-erkin ado etish imkoniyati paydo bo`ldi. Biz o`zligimizni milliy qadriyatlarimizga sadoqatsiz tasavvur eta olmaymiz. U taraqqiyotning, o`ziga xos va mos rivojlanishning negizidir.

II BOB. O‘ZBEKISTONDA MILLIY TIKLANISH MASALASI.

2.1- §. Milliy tiklanishda oila va mahalla hamkorligi.

Oila – jamiyatning muqaddas uyi, eng asosiy tarbiya makonidir. Milliy istiqlol g‘oyasini odamlar qalbi va ongiga singdirish ham avvalo oiladan boshlanadi. Aynan bobolar o‘giti, otaning shaxsiy ibrati, onaning mehri orqali milliy g‘oya avloddan avlodga, insondan insonga o‘tadi, ong va shuurda muhrlanib boradi. Iqtisodiy farovon, axloqiy, g‘oyaviy-tarbiyaviy jihatdan sog‘lom bo‘lgan oila negizidagi jamiyat va davlat mustahkam bo‘ladi. Bunday oilalarda komil inson voyaga yetadi, uning tuyg‘ulari, tushuncha va dunyoqarashida milliy istiqlol g‘oyalari keng tomir otadi.

Milliy istiqlol g‘oyasining amal qilish tamoyillari shaxs va oiladan tashqari jamoa, mahalla bilan uzviy bog‘liqdir. Har bir O‘zbekistonlikning hayotida “shaxs – oila – mahalla” uchligi katta ahamiyat kasb etadi. Bu – sharqona turmush tarzimizning o‘ziga xos tizimidir. Bu – insonning jamiyat hayotiga uzviy singib, ijtimoiy munosabatlar ishtirokchisiga aylanishida muhim vositadir. Insonning oilada shakllangan iymon-e‘tiqodi, odobi, oriyati va vijdoni, g‘urur-iftixori, aql-zakovati, tafakkuri mahalla muhitida yanada yuksalib, xalq irodasi, o‘zaro totuvlik va hamkorlik rishtalari bilan uyg‘unlashib, jamiyatda sog‘lom munosabatlarning shakllanishiga, milliy istiqlol g‘oyalarining mustahkamlanishiga olib keladi. Mahalla shaxs va jamiyat munosabatlaridagi muhim bog‘lovchi vosita bo‘lib xizmat qiladi. Xalqimizning azaliy udumlari, urf-odatlar va an‘analarini ifoda etgan holda, mahalla ulkan g‘oyaviy-mafkuraviy tarbiya o‘chog‘i vazifasini bajaradi. Keksalarning foydali pand-nasihatlar, yoshi kattalarning shaxsiy ibrati, jamoaning hamjihatligi misolida milliy istiqlol g‘oyalarining amaliy qimmatini ortib boradi. Mahalla tizimi orqali mafkuraviy ishlarni samarali yo‘lga qo‘yish imkoniyatlari juda ko‘p. Jamiyat odamlar o‘rtasidagi munosabatlar majmuidir. Bu munosabatlar ichida odamlarning irodasi, intilishlari, umuman, ma‘naviy omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy istiqlol g‘oyasi – butun O‘zbekiston xalqining birgalikda insonparvar, farovon demokratik jamiyat qurish, unda har bir insonning munosib ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qilgan azm-u qarori ifodasidir. Inson, oila,

mahalla, mehnat jamoalari, davlat manfaatlari, ularni bog‘lab turuvchi ijtimoiy-siyosiy tizimlar milliy istiqlol g‘oyalari orqali yanada yaqqolroq namoyon bo‘ladi.

Jamiyatning asosiy taraqqiyot maqsadi milliy istiqlol mafkurasining shakllanish va rivojlanish jarayonida barcha davlat va jamoat tashkilotlarining mafkuraviy faoliyatini uyg‘unlashtiruvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, ijodiy, madaniy-ma’rifiy muassasalar faoliyatini janlantirish, ularning imkoniyatlaridan milliy istiqlol mafkurasini g‘oyalarini yurtdoshlarimiz qalbi va ongiga singdirish borasida imkon qadar keng foydalanish jamiyatning ana shu bosh maqsadini anglash zaruratidan kelib chiqadi. Bunda ularning ommaviyligiga, odamlarga tez va keng doirada ta’sir ko‘rsata olish imkoniyatiga katta ahamiyat beriladi.

Bir so‘z bilan aytganda, milliy istiqlol g‘oyasini tatbiq etish jamiyatimizning asosiy maqsadlari – Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil insonni tarbiyalash kabi olijanob g‘oyalarga bo‘ysundirilishi zarur.

Oila jamiyatning birinchi va birlamchi bo‘g‘ini, zarrachasi. Jamiyat ana shu kichik zarralardan tashkil topadi. Er va xotin - ikki tirik vujudning, ikki olamning o‘zaro ittifoqidan paydo bo‘lgan uchinchi bir olam - bu oiladir. Agar oila tinchtotuv, ahil bo‘lsa, olam tinch va obod. Aks holda, turmush do‘zaxga aylanadi, oila zindonning o‘zi bo‘ladi, buning jabrini esa er va xotinning o‘zigina emas, balki farzandlari, yaqinlari ham tortadi.

Oila har qanday jamiyatning ham asosini tashkil etadi. U qancha mustahkam, farovon va ilg‘or bo‘lsa, jamiyat shunchalik barqaror va taraqqiyparvar bo‘ladi. Jamiyatda amalga oshiriladigan yirik loyihalar, tub o‘zgarishlar agar ular oila asoslarini ham mustahkamlasa, takomillashtirsa yoki jilla qursa, unga salbiy ta’sir ko‘rsatmasa muvaffaqiyatga erishadi.

Oila poklikka va soflikka, ikki tomonlama muhabbatga, sadoqat va vafodorlikka asoslanishi kerak. Bu farzandlar tarbiyasi uchun muhim omil hisoblanadi.

Eng qadimgi odatimizga ko‘ra, o‘zbek oilasi ham to‘ydan boshlanadi. Xalqimiz saxovatli xalq. Topganini el-yurt oldiga qo‘ysam, deydi. Xalqimizni to‘ysevarlikda ayblab bo‘lmaydi. Agar ayblasak, o‘z-o‘zimizni kamsitgan bo‘lamiz.

To'y va ma'rakalarimizga o'rinsiz tosh otish insofdan emas. Lekin to'y bahona soxta obro' olishga intilish, kimosharga isrofgarchilikka yo'l qo'yishni oqlab bo'lmaydi. To'y va ma'rakalarda musobaqa emas, xayr-saxovat va ma'naviyat qadriyatlarini mustahkamlash ustuvor bo'lgani yaxshi. Albatta, bunda mahallaning o'zni beqiyos ahamiyatga ega.

O'zbek oilasining tashqaridan sezilmaydigan o'ziga xos ichki qonun-qoidalari, axloqiy, ma'naviy mezonlari bor.

Shunday qilib, oila - jamiyatning asosiy bo'g'ini. Oilada singdirilgan tarbiya, Vatan, el-yurt, mustaqillik, ozodlik haqida berilgan tushuncha, tasavvur bolaning murg'ak qalbida bir umr muhrlanib qoladi. Oila mustahkam, tinch, farovon, sog'lom bo'lsagina, jamiyatda barqarorlik vujudga keladi. Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, «Oilaning jamiyatdagi o'zni, tarbiyaviy-axloqiy ahamiyati, qadr-qimmatini anglab yetmasdan, oilaga millat manfaati nuqtai nazaridan yondashmasdan turib, xalqchil mafkura yaratolmaymiz»⁵. Ya'ni ma'naviy sohadagi vazifalarimizni muvaffaqiyatli amalga oshira olmaymiz.

Barkamol shaxs tarbiyasini tashkil etish barcha davrlarda ham ijtimoiy jamiyatning muhim talabi va asosiy maqsadi bo'lib kelgan. Tabiiyki, hozirgi kunda ta'lim islohotlari sharoitida ham barkamol shaxs tarbiyasi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda bunyodkorlik ishlari amalga oshirilayotgan hozirgi kunda mehnat tarbiyasida yoshlarni ijtimoiy-foydali mehnatga tayyorlash ishiga katta e'tibor berilmoqda. Chunki mehnat kelajak avlodni aqliy, axloqiy va estetik jihatdan tarbiyalaydi, ularning dunyoqarashini hamda mustahkam iroda sifatlarini shakllantiradi. Irodaviy sifatlarni tarbiyalash, ularga mehnat ko'nikmalarini singdirish g'oyat murakkab jarayon hisoblanadi.

O'quvchilar mehnat tarbiyasini tashkil etishda maktabning roli qanchalik katta ahamiyatga ega bo'lmasin, oila, mahalla hamkorligisiz bu ishni muvaffaqiyatli hal etib bo'lmaydi. Zero, oila birinchi tarbiya o'chog'i, birinchi muallim, bolaning mehnatga layoqatini, qobiliyatini, ijtimoiy qiziqishini

⁵ Каримов И. Миллий истиқлол мафкуриси – халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир. Том 10. – Т.: Ўзбекистон, 2002. – Б.23.

uygʻotadigan dastlabki tarbiya maskani boʻlsa, mahalla uni rivojlanishi, ravnaq topishi uchun muhit hisoblandi.

Bolaga mehnat tarbiyasini berishda sogʻlom oilaviy muhit, ota-onalarning shaxsiy namunasi, mehnatga munosabatlari, mehnat ahliga boʻlgan mehr oqibatlari, tinch-totuv mahalla, mehribon qoʻshnilar ham muhimdir. Bolada mehnat faoliyatiga qiziqish va ehtiyoj ancha barvaqt shakllanadi. Ota yoki ona farzandining xarakter-xususiyatini, qiziqishini hisobga olib, yoshligidan mehnat tarbiyasini berib boradi. Bolalarni oʻz-oʻziga xizmat qilishga odatlantirishda harakatlarni tushuntirish va koʻrsatishdan koʻproq foydalanish kerak. Kichik yoshidanoq har bir bola mehnatda ishtirok etsa, oʻz-oʻziga xizmat qilsa, yaʼni kiyinish, ovqatlangandan soʻng yigʻishtirish, chang artish, oyoq kiyimlarni taxlash, gullarga suv quyish va boshqa uncha qiyin boʻlmagan yoki xususiyatiga mos keladigan ishlarni muntazam bajarsa, mehnat bolaga tarbiyaviy taʼsir etadi. Bularning barchasiga oilada asos solingan boʻlsa, mahalla faoliyatida shakllanadi.

2.2- §. Fuqarolik jamiyatida g'oyalar xilma-xilligi.

O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li – fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lidan borishni bosh vazifa qilib qo'ydi.

Chunki fuqarolik jamiyatini barpo etish, birinchi navbatda, keng xalq ommasida o'z haq-huquqlarini taniydigan, o'z kuch va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondasha oladigan intellektual qobiliyat, fazilatlarni shakllantirishni taqozo etadi. Shuning uchun ham I.A.Karimov ta'kidlaganidek, “Islohotlarning muvaffaqiyati, avvalambor, mamlakatimizni yanada demokratlashtirish va liberallashtirish yo'lidagi sa'y-harakatlarimiz sur'atiga, fuqarolarimizning ijtimoiy-siyosiy faolligiga, ularning siyosiy va huquqiy madaniyatining yuksakligiga ... birinchi navbatda yetuklik darajasiga, ularning O'zbekistonimiz taqdiri va kelajagiga daxldor bunday ulkan mas'uliyatli vakolatlarni o'z zimmasiga olishga qay darajada tayyor ekaniga bevosita bog'liqdir⁶

O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini barpo etishning ijtimoiy asosi bevosita inson erkinligini, ozodligini ta'minlaydigan moddiy-iqtisodiy, ijtimoiy turmush tarzlari yuksak darajada rivojlangan bo'lishi bilan bevosita bog'liqdir. Garchi fuqarolik jamiyatida inson o'zi ongli boshqaruvni amalga oshirsa ham uning jamiyat oldidagi masuliyatini e ibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Mas'uliyat, birinchidan, jamiyat azolarining o'z faoliyati ustidan ongli ravishda nazorat qilib borishi, ikkinchidan, fuqaroning samarali faoliyat yuritishga zamin hozirlash ma'nosini anglatadi. Fuqaroning to'laqonli ozodligi, erkinligi uning ijtimoiy turmushdagi huquqiy asoslari batamom o'zgarishi, ijtimoiy munosabatlarning esa umuminsoniy qadriyatlar asosida takomillashishi bilan bog'liqdir. Ijtimoiy hayotda to'laqonli turmush tarzi barpo etilgandagina fuqarolik jamiyat a'zolarining erkin rivojlanishi uchun zamin yaratilgan bo'ladi.

Italiyalik jamiyatshunos olim Robert Patman olib borgan sotsiologik tadqiqotlarini umumlashtirib, ijtimoiy hayotni demokratlashtirishning hal qiluvchi omili “Fuqarolik madaniyati” ekanligini ta'kidlash bilan bir qatorda, “qaysi yerda

⁶ Karimov, I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – T.: “O'zbekiston”, 2010. – B.15.

to‘laqonli ijtimoiy hayot bo‘lsa, o‘sha yerda ular qo‘llab-quvvatlanadi”⁷ - degan g‘oyani ilgari suradi. Bu – fuqarolik jamiyatining ijtimoiy asosini tashkil etuvchi obyektiv reallikdir.

Fuqaro jamiyatning ijtimoiy subyekti sifatida faoliyat ko‘rsatar ekan, u siyosiy hayotdan chetda tura olmaydi. Har bir individ kelajakda fuqarolik jamiyatining ijtimoiy organizmi sifatida yashab faoliyat ko‘rsatar ekan, ma’lum ijtimoiy guruhning siyosiy yo‘nalishi qaysi tomonga borayotganligini to‘g‘ri anglash lozim. Agar siyosiy yo‘nalish umummilliy, umuminsoniy qadriyatlarni o‘z ichiga qamrab olsa, unda u fuqarolik jamiyatining mazmuni-mohiyatiga to‘g‘ri keladi. Har bir individ yoki shaxs qaysi ijtimoiy guruhga mansub bo‘lmasin, umuminsoniy qadriyatlarni e‘zozlovchi o‘z-o‘zini boshqaruvini amalga oshirgandagina fuqarolik jamiyati mazmuniga mos keladi. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini barpo etishning ma’naviy asoslari deyilganda, ma’naviyat sohasida o‘tkazilayotgan islohotlar negizida mavjud hurfiylik, o‘zlikni anglash, yuksak axloqiylik, vatanparvarlik singari fazilatlarni anglamoq lozim.

Darhaqiqat, fuqarolik jamiyati qurishdek ulkan vazifani amalga oshirish uchun birinchi navbatda xalqning ma’naviy, ma’rifiy saviyasini yuksak darajaga ko‘tarishni hayotning o‘zi taqozo qiladi. Prezident I.A.Karimov ta’kidlab o‘tganidek, “Xalqimizning kelajagi, eng avvalo, uning o‘ziga, ma’naviy qudratiga va milliy ongning ijodiy kuchiga bog‘liqdir. Ma’naviylik va ma’rifiylik xalqimizning ko‘p asrlik tarixi davomida doimo uning eng kuchli, o‘ziga xos xususiyati bo‘lib qoldi”⁸. Demak, fuqarolik jamiyati qurishni yuksak ma’naviyatsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Mustaqilikka erishilganidan keyin xalqning o‘zini-o‘zi boshqarish huquqlarini kafolatlash borasida bir necha qonunlar qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yilda qabul qilingan yangi tahrirda “Fuqarolarni o‘zini-o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi qarori bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Shu qarorda belgilanganidek, mahallalarda o‘tkazilayotgan fuqarolar yig‘ilishlari asosida kam ta’minlangan oilalarda moddiy yordam

⁷ Qirg‘izboyev M. Fuqarolik jamiyati: siyosiy partiyalar, mafkuralar, madaniyatlar.- T.: “Sharq”, 1998.- B.11.

⁸ Каримов И. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари.- Т.: Ўзбекистон, 1997.- Б.151.

ko'rsatish, ko'p bolali oilalarga nafaqa tayinlash masalalarini ijobiy hal etishda ko'maklashish, oilalarini davlat tomonidan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadlari uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ajratilgan mablag'lar o'z o'rnida foydalanilib kelinmoqda.

Ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy sohalarda faoliyat ko'rsatayotgan nodavlat va notijorat tashkilotlari majmuasi shakllandi. "Bugungi kunda mamlakatimizda jamiyat hayotining turli sohalarda 5100 ziyod nodavlat va notijorat tashkilotlari faoliyat yuritmoqda"⁹. Davlat mulkini xususiylashtirish ijobiy natija bermoqda, chunki mazkur tashkilotlarning faoliyati orqali aholining ehtiyojlarini, talablarini qondirish sohasida ijobiy natijalarga erishilmoqda.

Yurtboshimiz davlat qurilishi va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonini erkinlashtirish muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaganidek, "Bu boradagi asosiy vazifalar hokimiyat barcha tarmoqlarining bir-biridan mustaqil holda ish yuritish tamoyillarini mustahkamlash, hokimiyat vakolatlarini nodavlat va jamoat tashkilotlariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkaza borish, ularning haq-huquqlarini muhofaza etishni kuchaytirishdan iborat"¹⁰.

Hozirgi fuqarolik jamiyatini qurish sharoitini ko'p fikrlilikka, hurfikrlilikka asoslangan mafkura asosida O'zbekiston fuqarolari erkin, ozod faoliyat olib bormoqdalar. Xulosa qilib aytganda, fuqarolik jamiyatini barpo etishning asosiy yo'nalishi va tamoyillari deyilganda fuqarolarning erkinligini, tengligini, farovonligini taminlovchi shart-sharoitlarni yaratib beruvchi obyektiv omillar, uning ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy asoslari deganda, o'zlikni anglash, o'zini-o'zi boshqarish, nodavlat, notijorat, jamoat tashkilotlarini faoliyat olib borishi kabi ijtimoiy-siyosiy qadriyatlardan iborat ekanligini e'tirof etish kerak. Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, "Fuqarolik jamiyatini mustahkam asoslarini barpo etish yo'lidagi ishlarimizning mazmun-mohiyatini aynan mana shu masala tashkil etadi"¹¹.

⁹ Karimov, I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi.- T.: "O'zbekiston", 2010.- B.42.

¹⁰ Каримов И. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари.- Т.: Ўзбекистон, 1997.- Б.17.

¹¹ Каримов И. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз.- Т.: Ўзбекистон, 2000.- Б.16.

Fuqarolik jamiyati shunday jamiyatki, unda aholining biron-bir guruhi boshqa bir guruhni o'ziga bo'ysundira olmaydi, shuningdek, erkaklar bilan ayollarni bir-biri bilan bog'lab turuvchi ko'plab ijtimoiy, fuqaroviy, diniy, iqtisodiy, madaniy aloqa va munosabatlar yanada rivojlanadi. Falsafa ensiklopedik lug'atida ta'kidlanishicha, "Fuqarolik jamiyati – konstitusiyaviy huquq nazariyasida va demokratiyaga asoslangan ijtimoiy hayotning zarur oqilona usuli: insonga uning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti shakllarini erkin tanlash kafolatlanadigan, qonun ustuvorligi va inson huquqlari hamda erkinliklari qaror topadigan, ko'p partiyaviylik, siyosiy institutlar, mafkura va fikrlar xilma-xilligi ta'minlanadigan hamda o'zini-o'zi boshqarish organlarining mavqei baland bo'lgan ijtimoiy tuzumdur"¹² Lug'atda berilgan bu ta'rif keng bo'lib, fuqarolik jamiyatining hamma jabhalarini qamrab olgan. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'atida, "fuqarolik jamiyati – jamiyat taraqqiyotining avvalgi bosqichlarida davlat hokimiyati organlari bajarib kelgan talay vazifalarning jamoat tashkilotlari zimmasiga o'tishi, davlat faoliyati ustidan ijtimoiy nazorat o'rnatilishi"dir¹³. Darhaqiqat, bu ta'rif mantiqan to'g'ri bo'lib, fuqarolik jamiyati rivojlangan sari davlat o'zining funksiyalarini quyi jamoat tashkilotlariga berilib boriladi.

Fuqarolik jamiyati jamiyatning eng yuqori shakli hisoblanib u o'z ichiga turli "uyushmalar"ning tarkibiy qismlarining (oila, korporatsiya kabilar) qamrab oladi. Ular o'z mohiyatiga ko'ra jamiyatdagi adolatlilik tamoyiliga asoslangan hamjamiyat bo'lishini ifoda etadi. Bu jamiyatda har bir kishi o'zi uchun oliy farovonlik topishi mumkin. Fuqarolik jamiyati insonni va uning ulug'vorligini yuksaklikka ko'taradi.

Fuqarolik jamiyatining asosi-jamoat tashkilotlari hisoblanadi. Fuqarolik jamiyatining rivojlanishida nodavlat notijorat tashkilotlarini o'rni beqiyos hisoblanadi. Yurtboshimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Bugungi kunda mamlakatimizda jamiyat hayotning turli sohalarida 5100 dan ziyod nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyat yuritmoqda va bu ko'rsatkich 2000-yilga qaraganda

¹² Фалсафа. Энциклопедик луғат.- Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2004.- Б.288.

¹³ Ма'naviyat izohli lug'ati.- Т.: "G'afur G'ulom nomidagi matbaa ijodiy uyi", 2009.- Б.596.

2,5 barobar ko'pdir. Fuqarolar yig'inlari va o'zini o'zi boshqarish organlari mahallalar soni 10 mingdan ortiq tashkil etadi. Bular qatorida "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati, O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi, "Sog'lom avlod assotsiatsiyasi" va boshqa jamoat tashkilotlarini sanab o'tish mumkin. Bunday tashkilotlarning obro'si oshib, mustahkamlanib borgan sari fuqarolik jamiyati institutlarining davlat va hokimiyat tuzilmalari faoliyati ustidan ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdagi roli tobora ortib bormoqda"¹⁴. Fuqarolik jamiyati har doim u yoki bu maqsad va g'oyalar uchun aholini jipslashtirib, birlashtirib kelgan. Fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonida nodavlat va jamoat tashkilotlarini rivojlantirishdan maqsad ham jamiyat a'zolari manfaatlarining muvozanatini ta'minlash va himoya qilishdan iborat. Shuning uchun ham nodavlat, notijorat tashkilotlari Yurtboshimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, "faqat xayriya va muruvvat masalalariga aylanib qolmay, yana bosh vazifa – eng avvalo, demokratik qadriyatlarni, kishilarning qonuniy haq-huquqlari va erkinliklarini himoya qilishdan"¹⁵ iboratdir.

Fuqarolik jamiyati qurishdek ulkan vazifani muvaffaqiyat bilan amalga oshirish uchun birinchi navbatda xalqimiz istiqlool mafkurasini, ma'naviy, ma'rifiy saviyasini yuksak darajada ko'tarish zarur. Yurtboshimiz I.A.Karimov "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" asarida takidlaganidek, "Xalqimizning kelajagi, eng avvalo, uning o'ziga, ma'naviy qudratiga va milliy ongning ijodiy kuchiga bog'liqdir... Ma'naviylik va ma'rifiylik xalqimizning ko'p asrlik tarixi davomida doimo uning eng kuchli, o'ziga xos xususiyati bo'lib qoldi"¹⁶. Demak, fuqarolik jamiyati qurishni barkamol intellektual ma'naviyatsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. XXI asrda O'zbekiston Respublikasi davlati, hukumati va xalqi ilg'or, rivojlangan mamlakatlarda fuqarolarga erkinlik bag'ishlangan, shaxsning erkin kamol topishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratgan, jamiyatning hamma jabhalarini

¹⁴ Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi.- T.: "O'zbekiston", 2010.- B.42.

¹⁵ Каримов И. Ўзбекистон XXI асрга интилоқда.- Т.: Ўзбекистон, 1999.- Б.22.

¹⁶ Каримов И. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари.- Т.: Ўзбекистон, 1997.- Б.151.

demokratlashtirishga qaratilgan fuqarolik jamiyati barpo etish yo‘lidan dadil qadam tashlab bormoqda.

Mafkuraviy plyuralizm (lot. Pluralis - xilma-xillik rang-baranglik) ~ ijtimoiy-siyosiy hayotda turli qatlam, partiya, guruhlar manfaatlarini ifoda etuvchi g‘oyaviy rang-baranglikni, qarashlar va fikrlar xilma-xilligini ifodalaydi.

Inson va jamiyat hayotida g‘oyalar va mafkuralar xilma-xilligining namoyon bo‘lish ijtimoiy-ma‘naviy ehtiyoj ifodasidir.

Jamiyatda g‘oya va mafkuralar xilma-xilligining kuzatilishi insonlarning tabiat-jamiyat hodisalari, olam va odam to‘g‘risidagi fikrlari turlichaligi bilan izohlanadi.

Umumiy g‘oyaga e‘tiqod qilish tufayli turlicha ijtimoiy guruhlar shakllanadi. Ularning maqsad-muddaolari, orzu-istaklari, manfaatlari bir-biridan farqlash mumkin. Tabiiyki, ijtimoiy guruhlarining maqsad va manfaatlarini aks ettiradigan, ularga ma‘naviy-ruhiy kuch bag‘ishlaydigan g‘oyalarni amalga oshirish yo‘llari ham xilma-xil bo‘ladi.

Ezgulik, yaratuvchilik, bunyodkorlik, hamkorlik, ozodlik, erkinlikni qaror toptirishga qaratilgan fikrlar mamlakatda osoyishtalik xalqlar o‘rtasida totuvlik barqarorlikka xizmat qiladi. Ular mamlakat taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Ezgulik va yaratuvchilikni targ‘ib qiluvchi fikrlar ezgu va bunyodkor g‘oyalarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Amir Temurning parokanda bo‘lgan xalqni birlashtirish va shu asosda markazlashgan davlat tuzish to‘g‘risidagi fikrlari negizida mamlakat obodligi, xalq osoyishtaligini ta‘minlashga yo‘naltirilgan bunyodkorlik g‘oyalari paydo bo‘ldi. Buzg‘unchilikka undovchi yovuz kuchlar jaholat urug‘ini sepib, urushni targ‘ib qiladi. Buzg‘unchi fikrlar jamiyatdagi muayyan guruhlar, qatlamlarning ongiga singib, uning yovuz manfaatlarini ifodalaydigan g‘oyaga aylanishi mumkin. U holda jamiyatda beqarorlik muhiti vujudga kelib, odamlar boshiga katta kulfatlar yog‘ilishi mumkin.

Jamiyatda fikrlar xilma-xil bo‘lgani va bir-biridan farq qilganidek g‘oyalar ham turli-tuman bo‘lib, mohiyatiga, o‘z oldiga qo‘ygan maqsadi va qaysi ijtimoiy guruhlarining manfaatiga xizmat qilishiga qarab bir-biridan farq qiladi. G‘oya bilan g‘oyaning bir-biriga o‘xshamasligi va ular o‘rtasida farq bo‘lishini tabiiy jarayon

deb qarash kerak. Qaysi ijtimoiy qatlamning maqsadini ifodalashi va kimlarning manfaatiga xizmat qilishiga, qanday yo‘nalishga egaligiga ko‘ra ham g‘oyalar rang-barang bo‘lishi mumkin. Lekin g‘oya va mafkuralarning xilma-xilligi va bir-biridan farq qilishi tabiiy jarayon sifatida qaralishi bilan birga, ularni bir-biriga yaqin mushtarak tomonlari, ayni paytda, bir-biriga mutlaqo to‘g‘ri kelmaydigan jihatlari ham bo‘ladi.

Shubhasiz, ma’lum bir g‘oya va mafkurani jamiyat a’zolari ongiga majburan singdirish va unga rioya qilishni barchadan talab qilish — jiddiy xatodir. Nima uchun? Sababi, masalan, sobiq «Ittifoq davri»da kommunizm g‘oyasini mafkura yordamida jamiyatning barcha a’zolari qaysi qatlam, ijtimoiy guruh, qaysi millatga va qaysi dinga mansubligi muddaolari e’tiborga olinmasdan, ular uchun majburiy qilib, daxriylikni da’vo qildi va oqibatda bu g‘oyaning hayotiy ekanligiga odamlarda shubha va ishonchsizlik ortib bordi.

Ma’lumki, mafkura muayyan bir ijtimoiy guruhning, millatning, xalqning, jamiyatning manfaatlarini o‘zida mujassamlashtirgan qarashlar, g‘oyalar tizimidir. Bu tizim o‘zining falsafiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, madaniy negizlariga ega. Demak, mafkura o‘z mohiyati va vazifasi jihatidan nihoyatda rang-barang bo‘lishi tabiiydir. Xuddi jamiyat xayoti turli qatlamlar, yo‘nalishlar va darajalarga ega bo‘lganidek mafkura ham xilma-xil bo‘lishi mumkin.

Yer yuzidagi barcha insonlar o‘z fikr-mulohazalariga ega bo‘lib amaliy faoliyat yuritadilar. Shu sababli yunon faylasufi Aristotel ikkita inson aynan bir xilda fikrlamaydi, ularning olam hakidagi tushunchalari, fikrlari xilma-xildir deganda, haq edi. Darhaqiqat, dunyodagi xalqlar, millatlar, mamlakatlar va davlatlar ham bir-biridan farq qiladi. Ularning diniy e’tiqodi, milliy madaniyati, demak-ki mentaliteti, maqsadlari va taraqqiyot yo‘llari ham rang-barangdir. Tabiiyki, ularning orzu-istaklari, hayotiy ideallari, muddaolarini aks ettiradigan g‘oyalar va ularni amalga oshirishda ma’naviy-ruhiy kuch bag‘ishlovchi mafkurasi ham xilma-xil bo‘lishi tabiiydir. Darhaqiqat, dunyodagi har bir davlat, xalq va millat, jamiyatning maqsad va manfaatlarini ifodalaydigan o‘ziga xos g‘oyasi va mafkurasi mavjud.

Mamlakatda ilg'or g'oyalar, mafkuralar qancha ko'p bo'lsa, ya'ni mafkuraviy plyuralizm hukmron bo'lsa, taraqqiyotning samarali yo'lini tanlab olish uchun imkoniyat shunchalik keng bo'ladi. Fikrlar erkinligi va xilma-xilligi mafkuralarning mazmun jihatidan boyishiga, bir-birini to'ldirishiga xizmat qiladi.

Mustaqil O'zbekiston mafkura yakkahokimligidan voz kechdi va milliy taraqqiyoti uchun keng yo'l ochdi. Mamlakatimizda mafkuralar va fikrlar xilma-xilligiga alohida e'tibor beriladi. G'oya va mafkuralar xilma-xilligi ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiladigan yangidan-yangi g'oyalarning paydo bo'lishiga turli xalqlar, elatlar, millatlar va siyosiy institutlarning manfaatlarini umumiy tarzda ro'yobga chiqarishga imkoniyat yaratadi. Shuningdek, u mamlakatimizda ko'ppartiyaviylik tizimiga ham sharoit yaratadi. Siyosiy partiyalar esa o'zlari mansub bo'lgan qatlamlar, siyosiy guruhlarining manfaatlari, intilishlari, orzu-umidlarini umumlashtirgan holda o'z harakat dasturlari orqali namoyon qiladi.

Shu bilan bir qatorda, tarixiy taraqqiyotning mas'uliyatli davrlarida jamiyatdagi barcha ijtimoiy guruhlar, millat yoki siyosiy yo'nalishlarni o'zida mujassamlashtiruvchi, ko'pchilikka maqbul, umum tomonidan ma'qullanadigan, jamiyatning asosiy manfaatlarini o'zida mushtaraklashtiradigan mafkuralar ham bo'lishi mumkin. Masalan, milliy ozodlik qudratli mafkurasi, milliy mustaqillik mafkurasi va hokazo. Umummilliy g'oya jamiyat a'zolarining, xalq ommasining tub manfaatlarini va ko'nglidagi orzu-intilishlarini ifoda etgani, millatlarning birdamligi, jamiyatning qudratini mustahkamlashi, fuqarolar o'rtasidagi bag'rikenglik munosabatlarini ifoda etgani sababli odamlarni ulkan maqsadlar yo'lida birlashtiradigan joziba kuchiga ega bo'ladi. Bunday g'oya jamiyatda barqarorlikni ta'minlaydi. Tarix saboqlari shundan dalolat beradiki, fikrini erkin ifoda etadigan shaxs, guruh yoki ijtimoiy qatlam, avvalo, o'zining aniq-ravshan asosli qarashlariga ega bo'lishi, o'z nuqtai nazarining oqibati uchun ma'suliyatni o'z zimmasiga olishi, bahs-munozara madaniyati talablariga amal qilishi lozim. Ya'ni, fikrlar rang-barangligi va qarashlar xilma-xilligi muayyan jamiyatning milliy manfaatlariga, umumbashariy qadriyatlarga, joriy qonunchilik normalariga, axloqiy mezonlarga zid bo'lmasligi lozim. Shu sababli jamiyatda bunyodkor-yaratuvchanlik g'oyalarini ilgari suruvchi va hayotga tadbqiq etuvchi kuchlar

jamiyat ahli o'rtasida o'z g'oyalarini singdirishga urinsalar, ko'pchilik ongiga ijobiy ta'sir etib, jamiyatda barqarorlik tinchlik osoyishtalik va yaratuvchilik ishlariga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Masalan, bu ilk o'rta asrlarda mamlakatimiz hududida ilm-fan, din, madaniyat, adabiyot, hunarmandchilik rivojlanishi tufayli iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy-ma'naviy sohalarda uyg'onish sodir bo'lib, ko'plab yetuk allomalarning yetishib chiqishiga olib keladi. Ular o'z ta'limotlarida buyuk g'oyalar yaratib, jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

XULOSA

O'zbekiston mustaqilligining qo'lga kiritilishi respublikaning o'z ijtimoiy-iqtisodit va siyosiy huquqiy taraqqiyot yo'lini tanlab olishiga, o'zining qat'iy yo'lga ega bo'lishi uchun katta imkon va sharoitlarni yaratib berdi. Insonparvarlik g'oyalariga sodiqlik, hurfikrlilik, vijdon va din erkinligi qoidalarini qaror toptirish va ijtimoiy adolat tamoyillarini ro'yobga chiqarish O'zbekiston tanlagan yo'lining asosiy negizini tashkil etadi. Ayni paytda milliy g'oya va mafkuraga tamal toshini qo'yish, Vatan tarixini o'rganish va uni mustaqil taraqqiyot yo'lga olib chiqish davlat siyosati darajasida muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqillikni mustahkamlashning omillari va vositalari turli shakllarda, ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Mustaqillikni abadiy bo'lishini ta'minlab beradigan asosiy omillardan biri jamiyat hayotining milliy-ma'naviy sohasidagi tiklanish ishlari va shu bilan birga millatlararo munosabatlarni to'g'ri tashkil etish hamda ularni takomillashtirishdir. Milliy-ma'naviy tiklanish va millatlararo munosabatlar doimo, har qanday davlat, mintaqa tarixida katta rol o'ynab kelgan.

Milliy-ma'naviy tiklanish, millatlararo totuvlikni ta'minlashga erishish tarixiy zaruriyat ekanligini har bir fuqaroning qalbi va ongiga singdirishda milliy g'oyaning, milliy mafkuraning o'rni benihoya kattadir.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida milliy-ma'naviy tiklanishning bir qator vazifalarini hal etish talab etiladi va bu hayotiy zaruratga aylangan. Bular qatorida har bir millat vakilida milliy-ma'naviy tiklanish, milliy g'urur va milliy faxrni shakllantirish; milliy-ma'naviy tiklanish va millatlararo munosabatlarning takomillashib borishi jamiyat taqdiriga katta ta'sir ko'rsatishi muqarrar ekanligini anglatish; millatchilik, ma'naviy tubanlik, milliy ziddiyatlar tinchlik va barqarorlikka asosiy tahdidlardan biri ekanligini tushuntirish; har bir insonda milliy-ma'naviy tiklanishga, boshqa millatlarga nisbatan ishonch, o'zaro hurmat tuyg'usini shakllantirish va ma'naviy barkamol avlodni voyaga yetkazish kabilarni sanab o'tishimiz mumkin.

ҲОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎХАТИ.

Рахбарий адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. 2014 йил.
2. Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура.1—жилд.Т.: Ўзбекистон, 1996.
3. Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. 2-жилд. -Т.: Ўзбекистон, 1996.
4. Каримов И.А. Биз келажагимизни ўз қулимиз билан кўраимиз. 7-жилд.Т.: Ўзбекистон, 1999.
5. Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт — пировард мақсадимиз. 8 -жилд-Т.: Ўзбекистон, 2000.
6. Каримов И.А. Ватан равнақи учун ҳар биримиз масъулмиз. 9 - жилд-Т.:Ўзбекистон, 2001.
7. Каримов И.А. Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. 10 - жилд-Т.: Ўзбекистон, 2002.
8. Каримов И.А.Она юртимиз бахту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш енг олий саодатдир. – Тошкент: Ўзбекистон, 2015.

Дарслик ва ўқув қўлланмалар

9. Ўзбекистон тарихи.1-2-жилд.- Т.: Академия, 2000.
- 10.Азизхўжаев. Давлатчилик ва маънавият. -Т.: Шарқ, 1997.
- 11.Бобоёров Р. Турк хоқонлигининг Мовароуннаҳрдаги бошқарув тизими ҳақида. Ўзбекистон тарихи, 2000.- 4-сон.
- 12.Форобий.Фозил одамлар шаҳри.Т:А.Қодирий, 1993.
- 13.Одилқориев Х.Т. Ўзбекистон Республикасида қонун чиқариш жараёни.-Т.: 1995.
- 14.Салимов О. Янги Ўзбекистоннинг 7 зафарли йили.-Т.: Шарқ, 1999.
- 15.Саъдуллаев А. Тарих ва тараққиёт ва давлатчилик. Жамият ва бошқарув. 2000, 1-сон. 19-20 бет.

16. Усмонов П. Ўзбекистон сиёсий ва ҳуқуқий ислоҳотлар сари. - Т.: Университет, 1996.
17. Халилов Э.Х. Ижтимоий турмушда ҳуқуқий онгнинг ўрни. - Т.: Ўзбекистон, 1997.
18. Хусанов О. Ўзбекистон Республикаси давлат органлари. - Т.: Шарқ, 1996.

Интернет маълумотлари

19. www.bbc.co.uk/uzbek/news/story/.../080808_uzbek_bunyodkor.shtm

намуна